

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

*Karamatova Dilfuzा Sadınovna*

*Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ong va madaniyatni shakllantirishda duch keladigan muammolar, ularga munosib yechim toppish chora-tadbirlari va tabiatga nisbatan mehr-muhabbatini uyg'otish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar.** Boshlang'ich sinf, ekologiya, ekologik madaniyat, ekologik ong, tabiat.

Hozirgi kunda ekologiya, tabiat, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bizni o'rabi turgan tabiat biz uchun katta imkoniyat demakdir. Biz unda yashaymiz, undan foydalanamiz, ehtiyojlarimizni qondiramiz. Shunday ekan, yosh avlodni atrof-muhitni asrashga doir bilimlar bilan qurollantirishimiz lozim. Yoshlikdan bolada tabiatga nisbatan to'g'ri munosabat uyg'otish muhim vazifadir. Bu borada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ham ekologik ong, ekologik madaniyat tushunchalarining dastlabki negizini anglatishimiz lozim. Xo'sh, ekologik ong nima, biz ekologik madaniyatga qanchalik rioya qilamiz?

Jamiyatimizga nazar tashlasak atrof-muhitning chiqindi bilan ifloslanish holatlari juda ham ko'p kuzatiladi. Shuningdek, tabiatga juda ham ko'p zararli gazlar ajralib chiqmoqda. Bu, albatta, avtomobillar harakati natijasida yuzaga keladi, lekin biz bu vaziyatga boshlang'ich sinf o'quvchilarini aralashtira olmaymiz. Ammo chiqindi tashlash muammolarida qaysidir ma'noda mакtab o'quvchilari ham ishtirok etishmoqda. Bilamizki ayrim ota-onalar chiqindilarni tashlab kelish uchun farzandlarini chiqarib yuborishadi, ular esa erinchoqlik qilib chiqindilarni ba'zi hollarda tashlash mumkin bo'lмаган joylarga tashlab kelishadi, buning natijasida esa atrof-muhit ma'lum darajada ifloslanadi. Buning oldini olish ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muhim vazifasidir.

O'quvchilarda ekologik majburiyat va madaniyatni shakllantirish ijtimoiy muhitda xuddi shu masalalarni yuqori darajada amalga oshirishga bog'liqdir. O'quvchilarning ekologik tarbiyasi va tabiatdan oqilona foydalana olish to'g'risidagi bilim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, tabiat qonunlarini yaxshi bilsa, ana shundagina tabiatdan foydalanaolish madaniyati va ma'suliyati ham shu qadar yuqori bo'ladi. Bunday ishlarni amalga oshirish va bunga erishishda ko'proq ma'sulyat pedagog o'qituvchilar zimmasiga tushadi. Biz pedagoglar o'tilayotgan darslarimizda o'quvchilar ongida tabiat, tabiat mavjudodlari, inson va tabiat aloqasi, qolaversa

ekologiya va uning maqsad vazifalari haqida tushunchalarni shakilantirib borishimiz lozim.

Ekologik tarbiyaning maqsadi inson va tabiat, inson va atrof muhit o'zaro uyg'unligikda ekologiyani anglatish va o'quvchilarda ekologik ma'suliyat va ma'naviyatni shakllantirish demakdir. Bu tabiatga ilmiy asoslangan ta'sir orqali namayon bo'ladi. Buni amalga oshirish esa o'qituvchilar oldiga qo'yilgan katta masalalar- dan biri bo'lib maktab va xalq ta'limining barcha tizimi, yosh avlodni tarbiyalash an'anasiaga bizdan, tabiat ino- midan to'liq foydalanish kerak "Biz tabiatdan hayrehson kutib o'tirmaymiz, uni o'zimizga bo'ysindirmaymiz" degan g'oyalardan voz kechishni, tabiatni himoya qilish va tabiat inomlaridan avaylab unga ziyon yetkazmasdan foydalanishni taqoza etadi. Shunday ekan maktab sharoitida ekologik ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalarini amalga oshirishda mustaqil O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish lozim.[2].

Ekologik madaniyatli yoshlarni voyaga yetkazishda o'quvchilar ongiga ta'sir etuvchi samarali usullardan tabiatga bog'lagan holda foydalanish lozim. Masalan sinf xonasidagi, maktab hovlisidagi o'simliklarni o'quvchilar tomonidan zarar yetkazilmasligi, nobud qilinmasligi uchun sinf rahbari o'quvchilarni ogohlantiradi: "O'quvchilar sinf xonasidagi va maktab hovlisidagi o'simliklarni payhon qilmanglar, ularni parvarish qilish uchun bog'bonlarimiz ko'p mehnat qilishgan". Bu singari doimiy gaplar o'quvchilarning qulog'idan kiradi, ammo qalbiga yetib bormaydi. Bu maqsadga to'laqonli erishish uchun o'qituvchi o'quvchilarga "har birimiz xona gullaridan birini tuvakka o'tqazib kelamiz va o'quv yili oxirigacha uni parvarish qilamiz, o'quv yili yakunida eng yaxshi parvarish qilingan gul kimniki ekamligini aniqlaymiz" deb topshiriq beradi. O'quvchilar bir yil davomida o'z gullarini parvarish qiladilar, bu jarayonda bor etibori va mehrini beradi va o'z guli eng yahshi parvarish qilingan gul bo'lishini istashadi. Endi bu o'quvchi maktab bog'idagi, sinf xonasidagi o'simliklarga umuman zarar yetkazmaydi. Chunki u o'sha o'simlikning shu darajaga yetishi uchun qancha mehnat va vaqt ketganligini tasavvur qila oladi.

Fan-texnika taraqqiyoti va uning yutuqlari insonlar uchun juda katta qulayliklar, imkoniyatlar yaratishi bilan birga tabiatga nisbatan nixoyatda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tabiat boyliklari bo'lmish - yer, suv, havo juda ham ifloslangan, o'simlik va hayvonot olami ayrim turlarining mavjudligi xavf ostida qolgan. Shu sababli, atrof muxitni muxofaza qilish va uning zaxiralaridan oqilona foydalanish hozirgi davrning asosiy masaladir. Har bir madaniyatli inson bu muammolarni bartaraf etish uchun kurashsa, jamiyatda haqiqiy ekologik madaniyatli kishilar shakllanadi. Bo'lajak mutaxassislar yuksak darajadagi umumiyligi ekologik madaniyat va kasb maxoratini egallagan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uzlashtirgan, tabiatni muxofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan O'zbek xalqining milliy an'analariga tayanadigan bo'lsa tabiatga va uning zaxiralariga salbiy ta'sir etmaydi. Shu sababdan

ham bo'lajak mutaxassislar o'z kasbiy faoliyati bo'yicha chuqur bilim, yuqori ekologik madaniyatga ega bo'lishlari zarur. Bu ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan muhim pedagogik jarayondir. Haqiqatdan ham ekologik madaniyatni shakllantirish hozirgi ta'lim tarbiya sohasidagi hal qilinishi lozim bo'lgam dolzarb vazifalardan biri bo'lib turibdi.

**Ekologik tarbiyaning maqsadlari:**

1. Tabiat atrof-muhitni muhofaza qilish haqidagi nazariy bilimlarning dastlabki asoslarini o'rganish.

2. Hozirgi zamon ekologik siyosatning mazmuni va mohiyati bilan tanishish.

3. O'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

4. O'quvchilarda ekologik tadqiqot yuritish ko'nikmalarini shakillantirish.

5. Yoshlarni ekologik madaniyatning shakllantirish tarixiy ildizlari haqida malumotlar bilan tanishtirish.[3].

Ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik ong tarixan inson xulqi me'yorlarini, uning ijtimoiy muhit va tabiatga bo'lgan munosabatlaridagi majburiyatini aniqlaydigan mezon bo'lgan. O'zbek xalqi tarixi yoshlarda ekologik ongni rivojlantirishga doir boy ijodiy merosga ega bo'lib, bu merosni o'rganish, hayotga tatbiq etish hamda kelajak avlodlarga yetkazish hozirgi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Ta'lim tarbiya berish jarayonida yoshlarda ekologik ongni shakllantirish pedagog uchun muhim vazifadir. Shuning uchun pedagog ta'lim oluvchilar uchun ekologik vazifalarni belgilashi lozim.

**Ekologik vazifalar asta-sekin aniqlanadi:**

•ekologik bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish;

• ekologik faoliyat paytida muktab o'quvchilarining kognitiv, ijodiy, jamoat faoliyatini rivojlantirish,

•tabiatga boshlang'ich ekologik qobiliyat va ko'nikmalarni xulq-atvor,kognitiv, konvertatsiyani o'rnatning,

• ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish (ko'tarish).[4].

O'quvchilar ekologik tarbiyani qalbiga singdirib, ekologik vazifalarni to'la anglaganlardan keyin, ular chinakam ekologik madaniyatli shaxs sifatida voyaga yetadilar. Bu esa tabiatni muhofaza qilishning eng muhim omillaridan biridir.

Muktab davridan boshlab biosferani saqlab qolish muammosidan hech kim chetda qolmasligi uchun tabiatga muhabbatni singdirish va ekologik madaniyatni tarbiyalash zarur. Ota-onalar va bolalar bog'chasi o'qituvchilar bolalar bilan, o'qituvchilar esa muktabda ishlashlari kerak. Sayyoramizning kelajagi ularning bolalar uchun ekologik ta'limni qanday olib borishiga bog'liq. Ekologik ta'lim jarayonida nafaqat muktabda va sinfdan tashqari ishlarda, balki uyda ham turli shakl va usullardan foydalanish muhimdir. Shuni esda tutish kerakki, ota-onalar o'z farzandlariga o'rnak

ko'rsatdilar, ya'ni oddiy qoidalar (ko'chada axlat tashlamang, hayvonlarni o'ldirmang, o'simliklarni yig'mang, subbotniklar o'tkazing) bolalarni uyda o'qitish, ularga o'zlarining xulq-atvorlarini yaxshi namunalarini ko'rsatish. Ekologik ta'limning turli shakllari va usullarining birlashishi sayyoramiz farovonligi bog'liq bo'lgan jamiyatning vijdonli va mas'uliyatli yoshlarini shakllantirishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nuriddinova "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" Cho'lpon nashriyoti Toshkent 2005-yil.
2. Ismatova, Z., & Boltayev, O. (2020). The Effect of Herbicides (2, 4 Dichlorophenoxy Acid) on the Early Stages of Development of Winter and Spring Wheat Varieties. Архив Научных Публикаций JSPI
3. Norboy o'g'li, H. F. (2023). Umumiyoqta'lim muassasalarini boshqarishda raqamlı texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish: 1-SON 1-TO'PLAM IYUL 2023 yil. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 1(1), 276-281.
4. Inoyatova, Z., Karomatova, D., Adilova, M., & Khakimov, F. Improving the mechanisms of using digital technologies in the management of general secondary education institutions
5. Hayitov, A., & Abdurasulova, F. (2022). Interfaol metodlar asosida boshlang'ich sinflar darslarini samarali tashkil etish usullari. *Science and innovation*, 1(B7), 598-604.
6. Hayitov, A., & Azizova, S. (2022). Abu nasr farobiyning "fozil odamlar shahri" asari-bugungi kun yoshlarining ma'naviyat maktabi sifatida. *Science and innovation*, 1(B7), 432-438.
7. Hayitov, A., & Mansurova, S. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinif o'quvchilarida ekologik kompetensiyalarni shakillantirishning pedagogik shart-sharoitlari. *Science and innovation*, 1(B7), 1009-1015.
8. Hayitov, A., & Yusupova, I. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinif o'quvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish usullari. *Science and innovation*, 1(B7), 1262-1267.
9. Hayitov, A., & Xo'shboqova, F. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinif o'quvchilarida kommunikativ madaniyatni shakllantirish. *Science and innovation*, 1(B7), 1028-1034.
10. Muxammadieva, X. K., Nurmuratova, I., Tulaganova, S., & Jumaniyazova, M. (2022). O'quvchilardagi kitobxonlik madaniyati orqali altruistik motivlarni rivojlantirish. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1284-1288.
11. Мухаммадиева, Х. К., & Исматуллаева, Ф. Р. (2022). Бошланғич синфларда дидактик жараёнда боланинг ривожланишини таъминловчи технологияларни

- такомиллаштиришнинг илмий-педагогик таҳлили. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(2), 77-82.
12. Muhammadiyeva, X. K., & Ergasheva, G. Z. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(2), 10-14.
13. Караматова, Д. С. (2021). Синфдан ташқари машғулотлар орқали ўқувчиларни ижодий фаолиятга йўналтириш методлари. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(2), 4-9.
14. Sadinovna, K. D. (2022). Integrative approach to forming ecological culture of future primary class teachers. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 6, 82-86.
15. Sadinovna, K. D., & Qizi, M. M. M. R. (2022). Boshlangich sinflarda ta'lif sifatini oshirishda texnik vositalardan samarali foydalanish. *Science and innovation*, 1(B2), 152-154.
16. Rahmatova, F., & Abrorxonova, K. (2021). Educational issues in the works of enlightened intellectuals. *Boshlang'ich ta'linda innovatsiyalar*, 1(Архив № 2).
17. Abrorkhonovna, A. K. (2022). FORMATION OF A SENSE OF PATRIOTISM THROUGH TOURISM IN THE CURRENT TEXTBOOK "UPBRINGING" OF PRIMARY EDUCATION. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 5, 70-74.
18. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdievea, S. (2022). VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 72-77.
19. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdiyeva, S. (2022, June). ORGANIZATION OF EXCURSIONS IN PRIMARY SCHOOL CLASSES. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 139-143).
20. Abrorxonova, K. A., & Qizi, S. M. S. (2022). BOSHLANG 'ICH SINF "TARBIYA" DARSLARINI TASHKIL ETISHNING USUL VA VOSITALARI. *Science and innovation*, 1(1), 54-61.